



TA'LIMNI XALQ AN'ANALARI VA URF-ODATLARI BILAN UYG'UNLIGI

Mirkomilov Baxtiyor. JDPU, professor.

Axmedova Dildora Erkin qizi. JDPU, Tarix magistranti.

Annotasiya: Har bir xalqning madaniy taraqqiyoti, milliy o'zligining shakllanishi va saqlanib qolishi, avvalo, uning ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim jarayoniga xalqning an'ana, urf-odat va qadriyatlarini kiritish orqali yosh avlodda milliy g'urur, vatanparvarlik, insoniylik va ma'naviy barkamollik sifatleri shakllanadi. Ta'lim jarayonini xalq an'analari va urf-odatlari bilan uyg'unlashtirish milliy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Milliy qadriyatlar xalqning ko'p asrlik tarixi, urf-odatlari, an'analari, hayotiy qarashlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning ma'naviy merosi, madaniy boyliklari hamda tarixiy yodgorliklarida o'z ifodasini topadi. Ushbu qadriyatlar yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda, ularni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

*Xalq an'analari va urf-odatlari*ga tayangan ta'lim tizimi o'quvchilarning ma'naviy qiyofasini boyitadi, ularni milliy madaniyatga hurmat ruhida voyaga yetkazadi hamda jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Chunki milliy qadriyatlarni chuqur anglagan shaxs o'z xalqining tarixi va madaniyatiga befarq bo'lmaydi, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'ladi.

Shu bois, ta'limni xalq an'analari va urf-odatlari bilan uyg'unlashtirish jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash, yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi hamda milliy taraqqiyotning uzluksizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Xalq an'analari, ta'lim, tarbiya, vatanparvarlik, zamonaviy pedagogika.*



Annotation: *The cultural development of every nation, as well as the formation and preservation of its national identity, is closely connected with its education system. By incorporating national traditions, customs, and values into the educational process, such qualities as national pride, patriotism, humanity, and moral maturity are cultivated in the younger generation. The integration of education with folk traditions and customs is one of the key factors in the formation and strengthening of national values. National values are deeply rooted in the centuries-old history of a people, their customs, traditions, and worldview, and are reflected in their spiritual heritage, cultural wealth, and historical monuments. These values play an important pedagogical role in shaping the worldview of the younger generation and educating them in the spirit of national self-awareness.*

An education system based on folk traditions and customs enriches students' moral character, fosters respect for national culture, and strengthens social cohesion within society. This is because individuals who deeply understand national values are not indifferent to the history and culture of their people and possess a strong sense of national pride and responsibility.

Therefore, harmonizing education with folk traditions and customs is a crucial factor in the moral renewal of society, the development of young people as well-rounded individuals, and the sustainable continuity of national progress.

Keywords: *national traditions, education, upbringing, patriotism, modern pedagogy.*

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarni har tomonlama yetuk, vatanparvar va mas'uliyatli shaxs qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Tarbiya – bu hayot masalasi, xalq va millat kelajagining masalasidir." Demak, ta'limni tarbiyadan ajratmaslik, ularni bir butun jarayon sifatida olib borish – barchamizning muqaddas burchimizdir. Har bir inson ta'lim bilan bir qatorda o'z vatani tarixi, milliy qadriyatlari, o'zining ona tilisi, madaniyati, milliy urf-odatleri, an'analarini mukammal bilsa, millat taqdiri va



istiqboli haqida chuqur tasavvurga ega bo'lsa, mustaqillik shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi. Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatlarning ma'rifat nuri bilan tarbiya topgan yetuk avlod tarbiyalash barcha sohalarning, bugungi islohotlarimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Xalqimiz tarixlar silsilasida o'zining irodaliligi, barqarorligi, bir butunligi bilan katta bosqinlar, mustabidchilik, zulm iskanjasidan mardonavor o'z imon-e'tiqodiga suyanib omon chiqib kela oldi. Bu jasur, matonatli xalq o'z metin irodasini, bardoshini avlodlarga yuksak milliy qadriyatlari, me'moriy obidalari, urfodatlari qatorida meros qoldirib kelgan.

ASOSIY QISM :

Ota-onalar o'z farzandlarini najot va baxt-saodat uchun tarbiyalab, yoshligidanoq uning tanasini toza saqlash, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yomon odatlardan uzoqlashturishga harakat qiladi. Pedagoglar esa tabiblarga o'xshab, tanadagi dardni davolaganidek, tarbiyachilar ham ularni yaxshi xulq-atvor, odob-axloq bilan tarbiyalash va sifatli ta'lim berishmoqda. Holbuki, yaxshi xulq-atvorning asosiy kaliti bu ta'limdir. Axloq-odobimizning go'zal va nafosatli bo'lishida tarbiyaning ta'siri katta va asosiydir. Ba'zilar tarbiya axloqqa ta'sir qilmaydi va insonning tabiati o'zgarmaydi, deyishadi. Ammo bu to'g'ri emas, chunki tartib-intizom axloqqa ta'sir qiladi.

Jamiyatimizda eng muhim o'rin egallaydigan jarayonlardan biri bu ta'lim va tarbiyaning uyg'unligidir. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmagani kabi ularni alohida-alohida tashkil etib bo'lmaydi. Xalq an'analari — bu asrlar davomida shakllangan, xalqning turmush tarzi, axloq-odob me'yorlari, diniy va ma'naviy qarashlarini o'zida mujassam etgan qadriyatlar tizimidir. Ta'lim tizimi ana shu qadriyatlarni o'quv jarayoniga kiritish orqali yoshlarni milliy g'urur va o'zligiga hurmat ruhida tarbiyalaydi, ajdodlar tajribasiga tayanishga o'rgatadi, ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini oshiradi. Masalan, Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat□, Mehr-oqibat□, Halollik□, Or-nomus□ kabi qadriyatlar o'quvchilarda ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.



Tarixiy, qadimiy urf-odatlarining shakllanish jarayoniga ham qaraydigan bo'lsak, ularning tag zaminida jamiyatni birlashtirib, ularni yaxshilik, ma'naviy yetuklik sari chorlaydi. Ularning mohiyati ham tarixiylikimizni, milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish, bolalarga ular haqida ma'lumot berishdan iboratdir. Dars jarayonlarida ta'lim va tarbiyani bir me'yorda olib borish eng avvalo, dars samaradorligini oshiradi hamda sifatli ta'lim olishga yordam beradi. Bundan tashqari, urf-odatlar, an'analar bolalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim berish bilan bir paytda o'zbek milliy urf odatlari, qadimiy, tarixiy jarayonlar, an'analarni o'rgatishning ahamiyati katta. Bu orqali o'quvchi yoshlarning ham madaniy, ham ma'naviy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Dars jarayonlarida hamda undan tashqari holatlarida ham bu jarayon uzluksiz amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hozirgi texnika va texnologiya rivojlanayotgan bir paytda, zamonaviy ta'lim tizimida faqat texnik bilimlar bilan cheklanish yetarli emas. Shaxsning ma'naviy-axloqiy, milliy o'zlikka ega bo'lgan tarbiyasini ham inobatga olish lozim. Shu bois, xalqimizning an'analari va urf-odatlari ta'lim jarayoniga kiritilganda, ta'lim mazmuni yanada boyib, shaxsga yanada chuqurroq singadi. Ta'lim bilan bir qatorda o'zbek milliy urf-odatlari faqatgina o'tmish merosi emas, balki bugungi jamiyatning ajralmas qismi sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi kerakligini o'quvchi yoshlarga tushuntirib berilmoqda.

An'ana va urf-odatlarni ta'lim jarayoniga kiritish usullarining samarasi yuqori. Misol tariqasida, tarix darslarida milliy bayramlar (Navro'z, Mustaqillik kuni) tarixi o'rganiladi. Bunda uning ahamiyati, tarixiy tashkil topish jarayonlari hamda tarbiyaviy jihatlari o'rgatiladi. Ona tili va adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi □ maqollar, dostonlar, rivoyatlar orqali axloqiy tushunchalar beriladi. Mehnat ta'limida milliy hunarmandchilik, kasanachilik, ipakchilik, kulolchilik an'analari o'rgatiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda esa An'anaviy to'y marosimlari□, Milliy liboslar haftaligi□, Ota-bobolar merosi□ kabi tadbirlar o'tkazilishi va boshqalar.



Ta'limsiz tarbiya, tarbiyasiz ta'lim bo'lmagani kabi, insonni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirish ham mumkin emas. Chunki ta'lim inson ongini, dunyoqarashini kengaytirsam, tarbiya uning axloqi va xulqini shakllantiradi. Insonning haqiqiy kamolotga erishuvi ham ularning uyg'unli zarur. Agar inson faqat bilim olsa-u, tarbiya olmasa, u bilimini to'g'ri yo'nalishda qo'llay olmasligi mumkin. Aksincha, faqat tarbiya bilan cheklanib, bilimdan uzoq bo'lsa, u hayotning murakkab muammolariga javob topa olmaydi. Shu boisdan ham har bir oila, maktab, jamiyat ta'lim va tarbiyani uyg'un holda olib borishi zarur. Yosh avlodga puxta ta'lim berish bilan birga, ularning ma'naviyatini, axloqini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish — bu millat kelajagiga qo'yilgan eng muhim poydevordir. Ta'lim va tarbiya uyg'unligi tufayli komil inson, ongli fuqaro va mas'uliyatli shaxs tarbiyalanadi.

Ta'lim va tarbiya o'rtasida bir oz farq bo'lsa-da ularning ikkalasi ham birbiridan uzilmagan, chunki ilm olish - biror narsa olish, tarbiyalanish - itoat qilishdir. Shuning uchun o'qituvchilar o'z farzandlariga o'zlariga bo'ysunishga qodir bo'lgan narsalarni o'rgatishlari kerak.

Ta'lim insonni bilimli, fikr yurituvchi va hayotda o'z o'rnini topa oladigan shaxsga aylantiradi. Tarbiya esa unga halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi yuksak fazilatlarni singdiradi. Agar inson faqat bilim olsa-u, odobdan, axloqdan yiroq bo'lsa, u bilimni to'g'ri yo'lda ishlatolmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, faqat yaxshi xulq bilan cheklanib, bilimdan bebahra bo'lgan kishi ham zamonaviy hayot talablariga javob bera olmaydi. Shuning uchun har bir oila, maktab va jamiyat ta'lim bilan tarbiyani uyg'un holda olib borishi lozim. Darslarda milliy urf odatlarni shakllantirish maqsadida o'tilayotgan mashg'ulotlar mavzulari bolaning har tomonlama rivojlanishiga, yuksak odob-axloqli, milliy g'ururli komil inson bo'lib tarbiyalashiga yordam bermog'i lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida xalq an'analari va urf-odatlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'un holda qo'llash nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim sharti



hisoblanadi. Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi, ularning milliy o'zligini anglashiga, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda pedagogik faoliyat an'ana va urf-odatlariga tayangan holda, ilmfan yutuqlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan tarzda olib borilishi zarur. Zero, milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ta'lim-tarbiya g'oyalari Yangi O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati, ma'naviy yetukligi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishning mustahkam poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishidan parcha 2022-yil 28-yanvar <https://yuz.uz>
2. Pardayeva K."Buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Avloniyning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari" "Ta'lim fanlari bo'yicha Yevropa tadqiqot va mulohaza jurnali" 2019-yil 312-315-bet www.idpublications.org
3. Tulayeva L.T. "Maktabgacha yoshlardagi bolalarda milliy urf odatlar va shakllantirishning an'analar asosida mehr-shafqat tuyg'usini tarbiyalashning pedagogik asoslari" (maqola) Toshkent 2023-yil noyabr 39-43-bet www.pedagoglar.uz
4. To'raqulova N.M. "O'zbek milliy urf odatlari, an'analari va ularning zamonaviy kundagi o'rnini" "Ustozlar uchun" 1-to'plam 72-son, 2025-yil may 188-190-betlar www.pedagoglar.org
5. Shodiyev X.H. MILLIY QADRIYATLAR – YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASINING O'ZAGIDIR" 2024, 65-70-betlar. intereduglobalstudy.com